



AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYA TERMINLARIDA OMONIMIYA HODISASI

Normatova Maftuna

Qarshi davlat universiteti magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7578925>

ARTICLE INFO

Received: 18th January 2023

Accepted: 27th January 2023

Online: 28th January 2023

KEY WORDS

Omonimiya, leksik birlik, termin, leksik omonimiya, integratsiya, mobil aloqa.

ABSTRACT

Bu maqolada axborot-kommunikatsion texnologiya terminlarida omonimiya hodisasining uchrashi, lug'aviy omonimiyaning umumiste'mol leksik birlik bilan termin orasida ham, terminlararo ham bo'lishi misollar asosida yoritilgan. Terminologiyadagi omonimiyaning umumleksikadagi omonimiyadan farqli jihatlari ham farqlab berilgan.

Omonimiya hodisasi sinonimiya va antonimiyada sodir bo'lganidek, kamida birdan ortiq til birligi orasida yuzaga keladi. Jarayon anglatuvchi terminlarda ham omonimiya hodisasi kuzatiladi. Jarayon anglatuvchi terminologik tizimda lug'aviy omonimiyani uchratish mumkin.

Adabiy til doirasida affikslar omonimiyasi masalasi bir qator tadqiqotchilarning ishlarida va tilshunoslikka oid darslik, qo'llanmalarda keng yoritilgan. To'g'ri, M.Mirtojiyevning nomzodlik dissertatsiyasida omonimlarning faqat bir turi, ya'ni leksik omonimlarning paydo bo'lish yo'llari o'rganilgan. Ammo o'zbek terminologiyasida bu masala yetarlicha tadqiq etilgan emas.

Ma'lumki, affikslarda omonimiyaning vujudga kelishiga bir qator omillar sabab bo'ladi.

Terminlar omonimiyasini vujudga keltiruvchi omillardan yana biri terminlarni shakllantirishda affikslardan foydalanishning terminologik talablariga rioya etilmasligidir. O'zbek tili terminologiyasida bu holatga yetarli e'tibor berilmagani bois affikslar omonimiyasining keng avj olgani kuzatiladi.

Lug'aviy omonimiya umumiste'mol leksik birlik bilan termin orasida ham, terminlararo ham bo'lishi mumkin. Misol:

Yuqotish I – Signallarning radiyoto'lqinlar tarqaladigan mihitda va signallarni o'zgartiradigan qabul qiluvchi – uzatuvchi uskunada susayishi¹.

Yuqotish II – Yo'qotmoq fl. har. n. Yovvoyi o'tlarni yo'qotish. Imkoniyatni yo'qotish. *Ulamolarimizda xam ayb ko'p, bid'at ishlarni yo'qotish o'rniga, ularni himoya qiladilar.* Oybek, Tanlangan asarlar.

Yuqotish III Tegishli va muhim (zarur) narsa yoki kimsasidan ayrilish. *Yaxshi odam qishloqdan ketsa, katta yo'qotish hisoblanadi.* Gazetadan².

Silliqlash I – Ortiqcha yuklanishni oldini olish maqsadida tarmoqdagi trafikni tekislash³.

¹ Mobil aloqa tizimlariga oid atamalarning ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –Toshkent: 2008. –B. 158.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-том. –Б.286.

³ Mobil aloqa tizimlariga oid atamalarning ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –Toshkent: 2008. –B. 196.



Silliqlash II – Turli materiallar (metall, tosh, yog‘och va b.) ga ishlov berish bilan ularni silliq qilmoq, sayqal bermoq. Toshni silliq qilmoq.

Axborot-kommunikatsion texnologiya terminologik tizimida faqat leksik omonimiya mavjud. Leksik omonimiya terminlarning o‘zaro shaklan teng kelishidir.

Cheklash I – ЧЕКЛАМОҚ Белгили талаб, ўлчов, меъёр ва ш. к. билан чегараламоқ; чегара, чек қўймоқ; чегарасини белгиламоқ, қатъий қилиб қўймоқ. *Вақтни чекламоқ. тт Бунинг устига, таржимоннинг луғатини ҳам чеклаш уни бутунлай занжирбанд қилиб қўяр эди.* «ЎТА»⁴.

Cheklash II – Kirish signalini noliniyaviy qayta ishlash jarayoni, bunda uning amplitudasi avtomatik ravishda pasayadi⁵.

Tuzatish I – Tuzatmoq fl. har. n. Kamchiliklarni tuzatish. Uzini tuzatish. Yurishturishini tuzatish. *Ba‘zan u kun bo‘yi xonasidan chiqmay, taxta qog‘ozdagi chiziqqlar ustida o‘ylar, chizmalarning kamko‘stini tuzatish bilan kunni kech qilar edi.* Mirmuhsin, Me‘mor.

Tuzatish II Yaxshilash yoki to‘g‘rilash maqsadida o‘zgartirish, o‘zgartma, tuzatma. Lug‘atga ilova qilingan tuzatishlar. Qarorga kiritilgan tuzatishlar. *Xatdan mamnun bo‘ldi shekilli, tuzatish kirgizmay, yaktak cho‘ntagiga solib qo‘ydi.* Oydin, Hikoyalar⁶.

Tuzatish III – Dasturga o‘zgartirishlar kiritish yoki ayrim qismlarni yangilash, qo‘shish yoki olib tashlash yo‘li bilan ma‘lumotlar to‘plash⁷.

Kodlash I – Dastlabki alifboni obektli alifboga qayta o‘zgartirish jarayoni⁸.

Avtomatlashtirish I – Ish, ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarini avtomatik asboblardan, mashinalardan asosiga o‘tkazmoq. Tarjima va so‘zlik yaratish jarayonlarini avtomatlashtirish juda qulay va bu katta itisodiy samara beradi⁹.

Avtomatlashtirish II – Ma‘lumotlarni kompyuterda qayta ishlash jarayonining bosqichlaridan biri. Bu raqamli tasvirlar shaklida taqdim etiladigan ma‘lumotlarni masofadan zondlashdir. Tasvirlarni kompyuterga kiritish, mavzu bo‘yicha shifrnı buzib ochish va ma‘lumotlarni ekspert baholashlarini o‘z ichiga oladi¹⁰.

Avtomatlashtirish III – turli jarayonlarni avtomatlashtirishga imkon beruvchi asbob va qurilmalar bilan ta‘minlash, avtomatlashtirish¹¹;

Gammalash I – Dastlabki (ochiq) matnnı ma‘lum algoritmda bo‘yicha shifr gammasi bilan qoplash¹².

Gammalash II – *gammalash*, axborot dasturiy usul ma‘nosida ham qo‘llanadi. Yani, *gammalash* usulida biz kril alfavitidan foydalanamiz va 0 dan 9 gacha sonlarnı sanoq sonı bo‘yicha tartıblab yozib olamiz. Ma‘lumotga kalit ketma-ket yozilib qo‘shilib ketaveradi¹³.

⁴ Ўзбек тилинг изоҳли луғати. 4-том. –Б.474.

⁵ Аxborot-kommunikatsiya texnologiya izohli lug‘ati. -Toshkent: 2010. –B. 127.

⁶ Ўзбек тилинг изоҳли луғати. 4-том.

⁷ Mobil aloqa tizimlariga oid atamalarning ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. –Toshkent: 2008. –B. 196.

⁸ O‘sha manba.-B. 167.

⁹ F. Саломов. Таржима назариясига кириш. -Toshkent: 20017.-B. 34.

¹⁰ Аxborot-kommunikatsiya texnologiya izohli lug‘ati. -Toshkent: 2010.

¹¹ Vikipediya, ochiq ensiklopediya. https://uz.wikipedia.org/wiki/Avtomatlashtirish_texnika_vositalari.

¹² Аxborot-kommunikatsiya texnologiya izohli lug‘ati. -Toshkent: 2010.

¹³ <https://fayllar.org/gammalash-usuli.html>. Vikipediya, ochiq ensiklopediya.



Shifrlash I – Kriptografik uslublardan (shifratga va dastlabki matnga o‘g‘irish, elektron raqamli imzoni shakllantirish va tekshirish, xesh-funksiya shakllantirish va tekshirish) foydalanishga asoslangan axborotni o‘zgartirish jarayoni. Axborotni shifrlash uni begonalar tomonidan o‘rganish yoki o‘zgartirish imkoniyatini yo‘qqa chiqaradi. Shuningdek, ma‘lumotlarga va dasturlarga, ulardan noqonuniy foydalanish maqsadida, ruqsatsiz raqamli imzo tizimiga kirishning oldini olishni ta‘minlaydi. Shifrlashning ikki usuli mavjud: simmetrik va asimmetrik¹⁴.

Shifrlash II – *shifrovaniye*, [encryption] Ma‘lumotlarni, ularning yashirin uzatilishini ta‘minlovchi maxsus algoritmlardan foydalanib, qayta ishlash usuli¹⁵.

Dasturlash I – [kompyuterlar](#) va boshqa mikroprotessorli elektron mashinalar uchun [dasturlar](#) tuzish, sinash va o‘zgartirish jarayonidan iborat. Odatda dasturlash yuqori saviyali dasturlash tillari ([HTML](#), [CSS](#), [JS](#), [Bootstrap](#), [Java](#), [C++](#), [Python](#)) vositasida amalga oshiriladi. Bu dasturlash tillarining semantikasi odam tiliga yaqinligi tufayli dastur tuzish jarayoni ancha oson kechadi¹⁶.

Dasturlash II — (*texnologiyada*) Predmet va texnikaning nisbatan yosh va tez rivojlanayotgan sohasi. Mavjud dasturiy va texnik vositalarni real ishlab chiqish va tarmoqlashtirishni olib borish tajribasi doimo qayta izlanishni talab etadi. Natijada yangi usullar, uslublari va texnologiyalar paydo bo‘ladi, ular o‘z navbatida, dasturiy ta‘minlashni ishlab chiqishning yanada zamonaviy vositalari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Yangi texnologiyalarni yaratish jarayonlarini tekshirish va ularning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash, bu texnologiyalarni dasturlashning rivojlanish darajasi hamda dasturchilar ixtiyorida dasturiy va apparat vositalarining xususiyatlari bilan solishtirish maqsadga muvofiqdir.¹⁷

Dasturlash III — ingl.: programming rus.: программирование

1. Dasturni yaratish jarayoni. Dasturlash o‘z ichiga dasturga bo‘lgan talablar tahlili va uni ishlab chiqish va yaratishning barcha bosqichlarini oladi: - algoritm, ma‘lumotlar tuzilmasi va dasturlash tizimini tanlash; - dasturni yozish (kodlash) va ma‘lumotlarni tayyorlash; - dasturni sozlash va sinovdan o‘tkazish; - dastur uchun qo‘shimcha hujjatlarni yaratish.

2. Hisoblash mashinalari uchun dasturlar tuzish va amalga oshirish uslublari va vositalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi fan¹⁸.

Bugun «raqamli», «raqamlashtirish», «elektron hukumat» so‘zlarini ko‘p ishlatamiz. Faoliyatimiz, yashash tarzimiz shu so‘zlar bilan hamohang kecha boshladi. «Raqamli televideniye», «raqamli iqtisodiyot», «agrar sohani raqamlashtirish», «axborot tizimi», xullas, bu ro‘yxatni uzoq davom ettirish mumkin.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga oid so‘z va atamalarning ma‘nosini hammamiz ham tushunamizmi yoki to‘g‘ri talqin qila olamizmi? Masalan, elektron davlat xizmatlari ko‘rsatadigan bir tashkilotning axborot tizimini ikkinchi tashkilotning axborot tizimiga integratsiya qilish, degani nimani anglatadi?

¹⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shifrlash>. Vikipediya, ochiq ensiklopediya.

¹⁵ O‘sha manba. –B.399.

¹⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Dasturlash>. Vikipediya, ochiq ensiklopediya.

¹⁷ Sh.A. Nazirov, g.s. ivanova, s.m. gaynazarov. Dasturlash texnologiyasi. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2014. –B.5.

¹⁸ Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. –Toshkent:2004. –B. 62.



«Integratsiya» soʻzi lotin tilidagi “integratio” soʻzidan olingan boʻlib, «qayta tiklash», «toʻldirish», «bogʻlash, ulash» maʼnolarini bildiradi. Demak, foydalanayotgan matnimiz maʼno-mazmunidan kelib chiqib, ulardan mosini qabul qilishimiz kerak.

Mobil aloqa xizmatlari. Bu soʻz ingliz tilidagi “mobile” soʻzidan olingan boʻlib, «harakatchan», «chaqqon», «koʻchma», «oʻzgaruvchan», «beqaror» degan maʼnolarni bildirar ekan. Baʼzi manbalarda uning maʼnosi odamlar oʻrtasidagi aloqani taʼminlash uchun foydalaniladigan moʻjaz simsiz telekommunikatsiya qurilmasini anglatish bilan birga, uyali telefon bilan adashtirmaslik zarurligi qayd etilgan.

Biz esa bu soʻzni oʻzbek tilida «uyali» deb bilamiz. «Mobil» soʻzini hamma joyda «uyali» deb ishlatish mumkinmi? Soʻz maʼnolaridan kelib chiqadigan boʻlsak, yoʻq. Chunki uning maʼnosi biz oʻylagandan, biz tushungandan koʻra kengroq ekan.

Bugun aholiga qulaylik yaratish, ularga koʻrsatilayotgan elektron davlat xizmatlarining sifatini yanada oshirish maqsadida «Elektron hukumat» doirasida idoralararo integratsion platformalar yaratilmoqda. Bu yerda «idoralararo» degan soʻzdan bir nechta idora haqida gap ketayotganini tushunib olamiz. Bu tushunchani «idoralararo muvofiqlashtirilgan maydoncha» deyish ham mumkin. Lekin axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayonida asosan rus va ingliz tilidagi manbalardan foydalanilgani uchun oddiy aholi u yoqda tursin, mutaxassislarga ham buni tushuntirish oson emas. Ular uchun birinchisi maʼqulroq, tushunarliroq.

«Kommunikatsiya» soʻzi lotinchadan kirib kelgan. Gap mazmuniga qarab, «jamlash», «bogʻlash», «umumlashtirish» (yoki «xabar», «maʼlumot», «fikir», «axborot almashish», «aloqa qilish») kabi maʼnolarni bildiradi. Lekin biz bu soʻzning oʻzbek tilidagi maʼnolaridan koʻra, uning oʻzini ishlatishni maʼqul koʻramiz.

«Abonent» soʻzini ishlatayotganimizga ham ancha boʻldi. Bu soʻz oʻzbekchadek tuyuladi. Yaʼni, tilimizga oʻzlashishga ulgurgan. Aslida fransuz tilidagi “aboner” soʻzidan olingan boʻlib, «obuna boʻlmoq» degan maʼnoni bildiradi. Oʻzbek tilida esa uni «mijoz», «foydalanuvchi» deyish mumkin.

Umuman, terminologik tizimda sinonimiya, variatsiya va omonimiya hodisalarining mavjudligi ilmiy aniqlik va muayyanlikka maʼlum darajada putur yetkazishi mumkin. Baʼzi hollarda termin yaratishda chegaradan chiqish holatlari ham yuz beradi, bu terminlarning, leksik birliklarda boʻlgani kabi, ijtimoiylik belgisiga zid turadi. Natijada terminologik boshboshdoqlik yuzaga chiqadi. Masalan, oppozitsiya – zidlash, differensiatsiya – farqlash, boʻlaklash – muchalash kabi.

Terminologik leksika umumleksikaning tarkibiy qismi boʻlib, umumleksikaga xos xususiyatlar terminologik sistemada ham aks etadi. Demak, umumleksikadagi sinonimiya, omonimiya, variatsiya hodisalari terminologik sistemada ham uchrab turishi tabiiy. Zero, umumisteʼmol leksik birliklar muayyan shaxslar tomonidan ijod qilinmaydi va ularni tartibga solish imkoniyati maʼlum darajada cheklangan. Biroq terminologik sistemada shaxslar tafakkuri izlari, ijodkorligi yaqqol koʻzga tashlanib turadi. Demak, ilmiy aniqlik talabi bilan terminologik tizimni tartibga solib turish, termin ijod qilish va qoʻllash madaniyatini takomillashtirish bu boradagi mavjud muammolarni yechish uchun xizmat qilishi tabiiy.

Tilshunoslarning eʼtirof etishicha, terminologiyadagi omonimiya umumleksikadagi omonimiyadan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:



«Birinchidan, terminologiya, asosan, omonimlarning bir ko‘rinishidan, ya‘ni so‘zning ma‘no taraqqiyoti, uning ko‘p ma‘noliligi natijasi sifatida yuzaga keladigan omonimiyadan foydalanadi, ikkinchidan, terminologiyaga nisbatan omonimiya sistemalararo hodisa sifatida xarakterlanishi mumkin: ular yo turli terminosistemalarga oid terminlar bo‘ladi, yoki leksik-semantik usulda hosil bo‘lgan, umumadabiy tildagi o‘zlariga asos bo‘lgan so‘zlarga nisbatan omonimga aylangan terminlar bo‘ladi»¹⁹.

Xullas, omonimiya tilning yashash qonuniyatlaridan biri ekan, terminologiyada ham uning uchrab turishi tabiiy. Shuningdek, omonim birliklarning ko‘pincha turli sohalarga oidligi ularni tushunishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishini ham esdan chiqarmaslik lozim.

References:

1. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Университет, 2006.
2. Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. –Toshkent:2004. –B. 62.
3. Sh.A. Nazirov, g.s. ivanova, s.m. gaynazarov. Dasturlash texnologoyasi. O ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2014. –B.5.
4. Ўзбек тилинг изоҳли луғати. 4-том.
5. Mobil aloqa tizimlariga oid atamalarning ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. –Toshkent: 2008. –B. 196.
6. F. Саломов. Таржима назариясига кириш. -Toshkent: 20017.-B. 34.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Avtomatlashtirish_texnika_vositalari.
8. <https://fayllar.org/gammalash-usuli.html>. Vikipediya, ochiq ensiklopediya.
9. Исмаилов Ғ.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. Филол. фан. номз. дис. автореф. – Т: ЎЗРФАТАИ, 2011.

¹⁹ Қаранг: Исмаилов Ғ.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. Филол. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗРФАТАИ, 2011.